

O 'TKIR HOSHIMOVNING "IKKI ESHIK ORASI" ROMANIDA QO 'LLANGAN BARQAROR BIRIKMALAR TAHLILI

*Toshkent gumanitar fanlar universiteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2- kurs talabasi
Mamatsapoyeva Sevinch*

Annotatsiya: *Tilning barqaror birikmalarini til hodisasi bo'lib, ular u yoki bu xalqning hayot tarzini, mentalitetini va insonlar xarakterini namoyon etadi. O'zbek tilining frazeologik birliklari o'zbek xalqining madaniyatini, urf – odatlarini va lingvokulturologik jihatlarni namoyon etadigan ko'p qirrali va ko'p qatlamlı imkoniyatga ega bo 'lgan tuzilmadir. Maqolada barqaror birikmalarini qo'llanishini asarning imkoniyatlarini ochib berish va uslubiy maqsadda foydalanish usulari yoritilgan.*

Kalit so'zi: *frazelogiya, maqol, matal, hikmatli so 'z, barqaror birikma, obrazhilik va ibora.*

Biz bilamizki, barqaror birikmalar nutqimizga tayyor holda kirib keladi. Biz nutqiy jarayonda fikrimizni bayon qilish uchun faqat so'zlardan emas, balki bir nechta so'zlarning birikishidan, ya'ni barqaror bog'lanishidan ham foydalanamiz. Ikki va undan ortiq so 'zlarning o 'zaro barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutq jarayoniga qadar tayyor holda olib kiriluvchi, til egalari xotirasida imkoniyat sifatida mavjud bo 'lgan til birliklari barqaror birikmalar deyiladi. Shunday ekan, bu kabi birikmalarning nutqimizda qanchalik ko 'pligi nutq egasining shu darajada nutqi boyligidan dalolat beradi.

Barqaror birikmalarga:

1. Frazeologizmlar
2. Maqol va matallar
3. Aforizmlar.

4. Voqelikni obrazli tasvirlashda, uni kitobxon ko 'z o 'ngida aniq va ravshan gavdalantirishda frazeologik iboralarning o 'rni va ahamiyati kattadir. Ibolarlar hayotdagi voqealari hodisalarni kuzatish, turmushdagi o'zgarishlar va tarjibalarni umumlashtirishda, xalq chiqargan xulosalarni o'ziga xos obrazli ifodasidir. Yozuvchilarimiz ham iboralarni qo 'llaganda faqat o 'z holicha qo 'llab qolmasdan, balki qahramonlarning ichki ruhiy holatini, dunyosini, tabiatini, insonlar bilan nutqiy jarayonlarini obrazli va ta'sirli qilib tasvirlash uchun ham foydalanadilar. Shu tariqa ibolarlar ham yangi- yangi ma'no qirralarini ochib boradi. Bu esa yozuvchilarini yuqori darajadagi so 'z ustasi ekanligidan dalolat beradi.

Badiiy asarda qo 'langan iboralarni o 'rganishda bir asar doirasidagi frazemalar miqdorini aniqlash va o 'ziga xos xususiyatlariga ko 'ra tasniflash, matndagi vazifasini tekshirish kabi vositalar lingvopoetik tahlil talablaridan biri hisoblanadi. Ana shunday jarayonda yozuvchining ham barqaror birikmalarning qo 'llashdagi mahoratini ham ko 'rish mumkin. Bu har bir yozuvchidan yuksak mahorat kasb etibgina qolmay, balki chuqur mulohazaga chorlash kabi vazifalarni ham talab qiladi.

Shu bilan birga maqollar va matallar ham nutqimizga tayyor holda kirib keladi. So 'zlovchi bu kabi birikmalarni nutqiqa tayyor holda olib kiradi. Maqollar fikrimizni ta'sirchan, bo 'yoqdor qilib ifodalash uchun ham xizmat qiladi. Badiiy asarlarda yozuvchilar maqollarni qo 'llash bilan qahramonlarning yashash tarzini, ularning hayotdagi orzu- umidlarini, donishmandligini va hayotiy tajribasidan xabar beradi. Shu maqollar orqali ularning ichki dunyosini va hayotga bo 'lgan intilishlarini ham ko 'rishimiz mumkin.

Sevimli yozuvchimiz O’tkir Hoshimov o’zining “Ikki eshik orasi” asarida barqaror birikmalardan juda ko’p foydalangan o’rinlarni ko’rishimiz mumkin. Asarga qo ‘yilgan nomning o ‘zi ham insonni chuqur fikr mulohazaga chorlaydigan sarlavhadir. Bu insonning tug ;ilgandan tortib to umrning tugaguniga qadar bosib o ‘tilgan yo’ldir deya tushunsak bo ‘ladi.

Har bir asarda ibora, hikmatli so`z va maqollar ,albatta, topiladi. Ammo bu asarda barqaror birikmalarning qo ‘llanishida o ‘iga xoslik va hech kimnikiga o ‘xshamagan ibora, maqollar va hikmatli so ‘zlardan foydalangan. Har bir sohaning o’zining deyarli qo ‘llaydigan ibora va maqollari mavjud. Iboralar hayotning deyarli hamma sohalarini qamrab olgan. U har xil soha kishilar tomonidan qo ‘llangan iboralar ularning o ‘zaro muomalalari, hazil-mutoyibalari, munozaralari, do’stona suhbatlari jarayonida yaratiladi va qo ‘llaniladi. Ular asosan milliy xarakterga ega bo’lgan va milliy qadriyatlarimiz jo bo ‘lgan birliklardir. Asarda qo ‘llangan iboralar, har bir xalq farzandi nutqida qo ‘llanilayotgan ibora o ‘sha xalqning madaniyati vakillariga yaqin harakatlar, rasm – rusmlar, har xil odatlar va insonlarning qo ‘ni –qo ‘shniga bo’lgan mehr oqibati asosida vujudga keladi. “Ikki eshik orasi” asarda ham juda ko ‘p barqaror birikmalarni uchratamiz. Masalan: “Chuchvarani xom sanabsan”, “Jo ‘jani kuzda sanaymiz”, “Boshini ikkita qilmoq”, “Sovuq xabar”, “Ko ‘ziga cho ‘p solmoq”, “Yulduzi yulduziga to ‘g’ri kelmoq”, “Bir qoshiq suv bilan yutguli”, “Etni tirnoqdan ayirmoq”, “Ichagini boshiga salsa qilmoq”, “Bo ‘rini eslasang, qulog ‘i ko ‘zga ko ‘rinadi” bu kabi iboralar qahramonlar nutqini yanada boyishiga xizmat qilgan. Maqollar ham xalq donishmandligi asosida yuzaga chiqadigan va ota- bobolarimiz so ‘zi sifatida avloddan avlodga meros bo ‘lib o ‘tadi. U qisqa bo ‘lsada, lekin tugal ma’no va xulosa ifodalaydi. Shu kabi maqollardan ham asarda uchratishimiz mumkin. “Jon omon bo ‘lsa, mol topiladi”, “Suymaganga suykalma”, “Oyning o ‘n beshi yorug ‘, o ‘n beshi qorong ‘u”, “Shirin yolg ‘ondan achchiq haqiqat yaxshi”, “Yaxshi kelsa kut, yomon kelsa yut”, “Ot o ‘rnini toy bosar”, “Sabrning tagi sariq oltin”, “Mol egasiga o ‘xshamasa, harom o ‘ladi”, “Bo ‘sh qop tik turmas”, “Ot aylanib qozig ‘ini topadi” kabi maqollar esa asar ta ‘sirchanligini oshirgan. Asardagi “sovuq xabar” iborasi ham biron bir yomon voqeа – hodisa haqida ma ’lumot beradi. Oddiygina qilib yomon xabar desak, asarning ta ‘sirchanligini oshirmaydi, sovuq xabar deyish bilan xayolimizga keladigan ma’no ham o ‘zing ma’nosи bilan bo ‘rtib chiqadi.

Yangi yil qanday kelganini bilmayman. Ketma-ket qor yog ‘ib , qahraton sovuq tushdi. Mahallaning hovuzida suv pasayib ketgan, Robiya har kuni yelkasiga obkash ilib, Bo’rijardan suv tashiydi. Yolg ‘iz o ‘zimizgamas, Oqsoqollargayam. Boshiga tog‘dek g ‘am tushib turgan Potma-Zuhra kelinlarga shunaqa paytda yordam bermasa, qachon beradi!

“Dard ustiga chipqon” deganidek, Kimsandan na xat bor, na xabar. Bu yerda ifodalangan “tog‘dek g ‘am” kabi o ‘xhatishlar ham asarning naqadar ta’sir kuchini oshirishini ko ‘z o ‘ngimizda gavdalantiradi. Yozuvchi tog ‘ning katta ekanligi hamma bilishi, lekin g ‘amning katta yo kichik ekanligini uning boshga tushadigan holatiga qarab izohlaymiz. Bu joyda yozuvchi urush degan ofatning har bir insonning boshiga katta xavf solishini va uni yuraklarda qoldirgan izlarini hech bir yurak unuta olmasligini ifodalab bergen.

Shu bilan birga bu ham yetmaganday Kimsanning ham ahvolini bayon qilish uchun “Dard ustiga chipqon” barqaror birikmasini mahorat bilan qo ‘llagan.

Bu kabi vositalarning asarda o ‘z ahamiyati va o ‘z o ‘rniga egaligi bilan diqqatni tortadi. Shu kabi iboralar ham har biri o ‘z ma’nosiga ega bo ‘lib o ‘sha davr voqealarini va urf- odatlarni aks ettirgan. Dard ustiga chipqon iborasi dard ustiga dard, qayg ‘u-alam ustiga yanada og’irrog ‘ining kelishi holatida

ishlatiladi. Chipqon - bu yaraning atrofida to’plangan yallig’lanish. O’zi yara bor edi, buning ustiga chipqonning chiqishi yanada yomon holat. Bu kabi iboralar juda ko ‘p qo ‘llangan bo ‘lib har biri o ‘z ma’no qirralari bilan bir – biridan farqlanadi. “Chuchvarani xom sanabsan” iborasi asarda reja qilingan ishning kutilganidek bo’lmagandagi holatida ishlatiladi. Tugilganda sanalgan chuchvara pishganida xomligidagidek chiqmaydi. Sababi suvga tushganda ochilib ketishi mumkin. Iboralarning bu qadar ko ‘p qo ‘llanishi asarning ta’sir kuchini oshirib qolmasdan, balki asar qahramonlarining o ‘ziga xos xarakterini ham ko ‘rsatib beradi.

“Boshini ikkita qilmoq” iborasining ma’nosи insonni hayotda yolg ‘iz holda yashamasligi, ya’ni to ‘y qilish maqsadida ishlatiladi. Asarda ham aynan shu ma’nolarda qo’llangan.

“Yulduzi yulduziga to`g’ri kelmoq” bu ibora hayotda bir – biriga juda mos kelishi ma’nosida ifodalananadi.

Shunday xulosa qilish mumkinki, ozbek tilining naqadar keng ko’lamli ekanligi va boyligini isbotlovchi asosiy ko’rsatkichlardan biri bu barqaror birikmalardir.Ular orqali fikrimizni chiroqli, ta’sirchan va o ‘quvchining diqqatini torta oladigan darajada ifodalashga imkon beradigan birikmalardir. Asarni o ‘qiganda beixtiyor bizni o ‘sha davrga va o ‘sha muhitga olib kiradi. Buning barcgasi barqaror birikmalarning qo ‘llanishi bilan desak bo’ladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. O`tkir Hoshimov. -“Ikki eshik orasi”. –Toshkent: “O`qituvchi” nashriyoti, 1986.
2. Yo’ldoshev.B.Hozirgi frazeolog birliklarning funksional-uslubiy xususiyatlari. T.: 2010.
3. Rahmatullayev Sh. O’zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. – T.: O’qituvchi. 1978.
4. O`tkir Hoshimov. -“Ikki eshik orasi”. –Toshkent: “O`qituvchi” nashriyoti, 1986 (3-796-betlar). 2
5. Yo’ldoshev.B.Hozirgi frazeolog birliklarning funksional-uslubiy xususiyatlari. T.: 2010.
6. Hoshimov O’. Dunyoning ishlari. qissa va hikoyalar / –T.: Yangi asr avlod, 2018. – 336 b.
7. O’tkir Hoshimov. Ikki eshik orasi: roman. –Toshkent: Meriyus, 2017. –